

ARABLAR BOSQINI DAVIRDA OZODLIK HARAKATLARI

Kamoliddinova Durdona

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi

Andijon davlat universiteti Tarix va

ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich 202-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21126211>

Annotatsiya Ushbu maqolada Arab bosqini Markaziy Osiyo davrida Movarounnahr hududida yuzaga kelgan ozodlik harakatlari tahlil qilinadi. Unda arab istilosining mahalliy aholi siyosiy, iqtisodiy va diniy hayotiga ko'rsatgan ta'siri, shuningdek, ushbu bosqinga qarshi yuzaga kelgan qo'zg'olonlarning sabablari va xususiyatlari yoritib beriladi. Maqolada ozodlik harakatlarining tarixiy ahamiyati va ularning keyingi davr ijtimoiy jarayonlariga ta'siri ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Arab bosqini, Movarounnahr, ozodlik harakatlari, qo'zg'olon, soliqlar tizimi, islom tarqalishi, Divashtich, buxorxudot, Samarqand, Buxoro.

ОСВОБОДИТЕЛЬНЫЕ ДВИЖЕНИЯ В ПЕРИОД АРАБСКОГО ЗАВОЕВАНИЯ

Камолиддинова Дурдона

Андижанский государственный университет

Имени Захириддина Мухаммада Бабура

Факультет истории и социальных наук

Студентка 2 курса, группа 202

Аннотация В данной статье рассматриваются освободительные движения на территории Мавераннахр в период Арабское завоевание Средней Азии. Анализируется влияние арабского завоевания на политическую, экономическую и религиозную жизнь местного населения, а также раскрываются причины и особенности восстаний против завоевателей. В статье также освещается историческое значение освободительных движений и их влияние на последующие общественные процессы.

Ключевые слова: арабское завоевание, Мавераннахр, освободительные движения, восстание, налоговая система, распространение ислама, Деваштич, бухархудат, Самарканд, Бухара.

LIBERATION MOVEMENTS DURING THE ARAB CONQUEST

Kamoliddinova Durdona

Zahiriddin Muhammad Babur

Andijan State University

Faculty of History and Social Sciences

2nd-year student, Group 202

Abstract This article examines the liberation movements in the territory of Transoxiana during the period of the Arab conquest of Central Asia. It analyzes the impact of the Arab conquest on the political, economic, and religious life of the local population, as well as the causes and characteristics of uprisings against the conquerors. The article also highlights the historical significance of these liberation movements and their influence on subsequent social processes.

Keywords: Arab conquest, Transoxiana, liberation movements, uprising, taxation system, spread of Islam, Devashstich, Bukharkhudat, Samarkand, Bukhara

Arab xalifaligining kengayish siyosati natijasida VII asr oxiri va VIII asr boshlarida Movarounnahr hududi arab qo'shinlari tomonidan bosib olina boshladi. Bu jarayon Arab bosqini Markaziy Osiyo nomi bilan tarixga kirgan bo'lib, u nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va diniy o'zgarishlarga ham sabab bo'ldi. Arablar tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar mahalliy aholi hayot tarziga keskin ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa soliqlar tizimi va yangi diniy tartiblarning joriy etilishi noroziliklarni kuchaytirdi.

Bosqin jarayonida mahalliy hukmdorlar va aholi qatlamlari turli shakllarda qarshilik ko'rsatdilar. Ushbu qarshiliklar oddiy noroziliklardan tortib, keng ko'lamli qo'zg'olonlargacha yetib bordi. Shu bois arab istilosi davri faqat zabt etish tarixi emas, balki ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar davri sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada arab bosqini davrida Movarounnahr hududida yuzaga kelgan ozodlik harakatlari, ularning sabablari, borishi va tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Arablar istilosi va hukmronligi davrida O'rta Osiyo. VI asrning oxiri va VII asr boshlarida (ya'ni, islom dinining vujudga kelishi arafasida) Arabiston yarim orolida Somiy (semit) qavmiga mansub arab qabila- lari tarqoq holda yashadilar. Ular o'rtasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Arablar, asosan, ko'chmanchi, chorvachilik bilan hayot kechirgan. Ko'chmanchilar badaviylar deb yuritilgan. Vohalardagi aholi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Dengiz bo'ylari, vohalarda, xususan, yarim orolning Qizil dengizga tutash Hijoz vohasi va janubiy Yamanda arab qabilalari, asosan, o'troq hayot kechirgan, savdosotiq, hunarmandchilik ham ancha rivoj topgan edi. Ayniqsa, Hijozning bosh shahri Makka xalqaro karvon savdosining muhim markazi hisoblangan[1.82].

Qurayish qabilasining hoshimiylar urug'idan chiqqan Muhammad ibn Abdulloh (570-632) 610-yilda Allohdan vahiy kelayotganligini e'lon qilib, arablarni rahmdil va qudratli, sahiylik bilan muruvvatlar ulashadigan yagona Allohga imon keltirishlariga da'vat etdi. Madina aholisi musulmon jamoasi «umma» birlashtiriladi. Arablarni istom bayrog'i ostida birlashtirish uchun kurash davom etdi. Arablar 630-yilda feodal islom davlatiga birlashtirildi. Muhammad (s.a.v.) payg'ambar vafot etgach (632-y.). "Xulofoiy rashoddin" (haq yo'ldan borgan sahih xalifalar) nomlarini olgan Abu Bakt, Umar, Usmon va Alilar (661-yilgacha) payg'ambar siyosatini davom ettirib. Arabiston yarim orolida markazlashgan Arab xalifaligi (arabcha o'rinbosar degan ma'noni anglatadi) davlatiga asos solinadi[2.53.].

Arab xalifaligi VII asrning boshlaridan boshlab o'z hududlarini g'arb va sharq tomonga kengaytirish harakatini boshladi. Xususan, 642 yilda Nahavanddagi jangda Eron sosoniylari tor-mor etilgach, O'rta Osiyo yerlariga hujum uchun imkoniyat yaratildi. Arablarning O'rta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651 yilda Marvni egallash bilan boshlandi. Arablar Amudaryo (Jayhun)dan shimolda joylashgan yerlarga "Movarounnahr", ya'ni "daryoning ortidagi yerlar" deb nom berishadi. Narshaxiy va arab muallifi Yoqut bergan ma'lumotlarga ko'ra, Muhammad payg'ambarning shaxsan o'zi Movarounnahrni bo'ysundirishni muqaddas deb hisoblagan va islomga e'tiqod etuvchilarni bu muqaddas ishga da'vat etgan. 652 yilda arablar Balx shahrini egallashga muvaffaq bo'ldilar. O'sha yili Amudaryodan o'tib Movarounnahrda hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi[3.196].

O'rta Osiyo yerlariga birinchi bor lashkar tortib kelgan hukmdor Ziyod ibn Abu Sufyondir. U 667-yilda Amudaryo bo'ylarigacha keladi. Marvni egallab katta boylik va o'ljalar olib yurtiga qaytib ketadi. 673-yilda Ziyodning o'g'li Ubaydulloh Ziyod yana Buxoroga qo'shin tortib keladi.

U Boyqand va Romiton yerlarini egallaydi. Bu davrda Buxoro taxtini malika Xotun bohqarar edi. U Buxoro hukmdori bevaqt olamdan o'tgan Bidun Buxorxudotning bevasi bo'lib, o'g'li Tog'shoda yosh bo'lganligidan davlatni o'zi boshqarmoqda edi. Xotun oqila va tadbirkor bo'lganligidan aholi qirg'in bo'lmasligi va mamlakatni vayronalikdan saqlab qolish maqsadlarini ko'zlab Ubaydulloh bilan sulh bitimi tuzadi va arablarga har yili bir million dirham tovon to'lab turish majburiyatini oladi. Chunki kuchlar teng emas edi, yordamga chaqirilgan turk lashkarlari ham vaziyatni biror-bir darajada o'zgartira olmasdi. Arablar buxoroliklardan to'rt ming kishini asir qilib oldilar, juda ko'plab boylik xazina, qurollar, kiyimlar, oltin, kumush narsalarni o'ljaga tushirdilar. Ular podsho xotinning bir poy etigi va paypog'ini ham topib oladilar Tilla ishlatilib. har xil qimmatbaho toshlar bilan bezatilib tayyorlangan etik va paypoq sahroyi arablarni juda ham hayratga slogan Va etik va paypoq ikki yuz ming dirham baholangan[4.133].

Kullas, 713-715-yillarda Qutayba ibn Mus lim Qashg'argacha bo'lgan yerlarni egallaydi. Miu tariqa u O'rta Osiyo yerlarini zabt etib, Xi- liiy hududigacha cho'zilgan o'lkada yashayotgan xalqlarni islom diniga kiritadi. U barcha iloyatlarga arablardan bo'lgan amirlarni noib viloyatlarga tayinlaydi. Biroq uning faoliyati uzoqqa cho'zilmadi. 705-yilda arab xalifaligi taxtini egallagan Volid 715-yilda vafot etdi. Xalifa- lik taxtiga Sulaymon ibn Abdulmalik (715-717)chiqdi. Qutayba Sulaymonga nisbatan g'animlik munosabatida bo'lib, unga nisbatan r.yon ko'tardi. Natijada bu isyon muvaffaqiyat- siz tugab, 715-yil Farg'onada Qutayba askarlar tomonidan o'ldirildi. Shunday qilib, o'n yil davomida olib boril- gan doimiy kurashlar natijasida Movarounnahr xalifalik tarkibiga kiritildi[1.87].

Arablarining bosqinchilik siyosatiga qarshi Markaziy Osiyo xalqlarining ozodlik kurashi to'xtamadi. Soliqlarning ko'pligi, arablashtirish siyosati, mahalliy aholi huquqlarining poymol etilishi ularning noroziligiga sabab bo'ldi. Arab bosqinchilariga qarshi kurash umumxalq qo'zg'olonlar tusini oldi[2.56].

Movarounnahrda arab istibdodiga qarshi dastlabki yirik qo'zg'olon 720-722-yillarda So'g'diyonada G'o'rak (So'g'd ixshidi) va Divashtich (Panjikent hokimi) boshchiligida bo'lib o'tdi. 725-729-yillarda xalifalikning og'ir soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro va Xuttalon viloyatlarida qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Qo'zg'olon ishtirokchilari arab ma'murlarining olib borgan siyosatiga norzilik bildirib ommaviy ravishda islom dinidan chiqadilar.[2.56].

736-737-yillarda Tohariston va So'g'dda arablarga qarshi xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Faqat Nasr ibn Sayyor noibligi davrida (738-748) o'lkada osoyishtalik o'rnatildi. 746-yilda Xuroson va Movarounnahrda abbosiylik harakatiga boshchilik qilish uchun Abu Muslim (asli ismi Abduraxmon ibn Asad. taxminan 727-755-yillar) yuboriladi. Abbosiylarning ramziy rangi va bayrog'i qora edi. Shuning uchun u qora kiyimliklar harakati deb nom olgan. Abu Muslim harakati tez orada butun Xuroson va Movarounnahrda yoyildi. 749-yilda Abu Muslim qo'shinlari xalifalikning markaziy viloyatlariga ham kirib borib. Damashqni egallaydi. Xalifa Marvon II taxtdan ag dariladi, abbosiylardan Abulabbos Saffoh (749-754) xalifalik taxtini egallaydi. Xalifalik taxti abbosiylar sulolasi qo'lga o'tadi. Bunda Abu Muslimning o'rni va xizmati nihoyatda katta bo'ldi[2.56].

Abu Muslim abbosiylarni xalifalik taxtiga olib kelgan bo'lsa-da, lekin undan asosiy taxt da'vogari sifatida qo'rqr edilar. Shu boisdan ham 755-yilda xalifa Abu Ja'far Davonaqiy Mansur (754-775) Makkaga kelgan Abu Muslimni hiyla bilan qo'lga olib o'ldiradi. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib. Xo ja Temim Ansoriy maqbarasi yoniga katta hurmat bilan ko'milgan.

Abu Muslimning o'chint olish uchun 755-yilda Rayda Sunbod boshchiligida (70 kun davom etgan), Movarounnahrda Isxoq boshchiligida, 772-yilda Xurosonda Ustoz Siz boshchiligida va 782-yilda Jo'rjonda qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan[2.57].

O'zaro kurashlar, 733–734 yillardagi Zarafshon vohasidagi qurg'oqchilik, mustamlaka zulmining kuchayishi — bularning hammasi Movarounnahrda norozilikning yanada avj olishiga olib keldi. Norozilik arab harbiylari va qisman zodagonlar ichida ham kuchaya bordi. Shu paytga kelib xorijiy harakati va mafkurasi yanada keng tarqala boshladi. Xorijiy yuqorida qayd qilinganidek, shialar guruhidan VII asr oxirida ajralib chiqqan bo'lib, bu so'zning lug'aviy ma'nosi qo'zg'olonchilar degani edi. Avval boshda bu harakat oddiy arab va boshqa musulmon xalqlarning manfaatlarini himoya qilar edi. Keyinchalik bu guruhdan ibodiy, azra kiyilar va boshqa jamoalar ajralib chiqqan. Xorijiy ta'limotiga ko'ra musulmonlar — zimmiylar (boshqa din vakillari) ustidan hukmron bo'lishlari kerak edi[3.199].

Movarounnahrda xorijiy harakatiga shu paytda Xoris ibn Surayj boshchilik qiladi. Xoris Movarounnahrda tezda shuhrat qozondi. U Samarqand va Dabusiyadagi Abu Sayid tarafdorlarini o'z qo'li ostida to'pladi. Abu Fotima uni yordamchisi va harbiy maslahatchisi etib tayinlandi[3.199].

Xoris Umaviy xalifalarni islomga rioya etmaslikda ayblab, butun Xuroson va Marv aholisini xiroj va jizyadan ozod qilishni talab etadi. Kesh xalq ommasiga tayanib, u Xurosonning shimoliga yurish qiladi. Uning qo'shini tarkibida Xuttalon shahzodasi Sabil, qarluqlar yabg'usi va Abu Fotima guruhi ham bor edi. Xalq harakatlaridan norozi bo'lgan xalifa Xurosonga yangi noib Osim ibn Abdullohni tayinlaydi. Xoris qo'shinlari Xurosonning katta qismini egallashib, Osimni chekinishga majbur etishadi[3.199].

735 yilga kelibgina xalifa yangi noib Asad ibn Abdullohni Xuroson valisi etib tayinlab, katta kuch bilan Xorisga qarshi kurash boshlaydi. 736–737 yillarda Asadning qo'shini Xurosondan Xorisni siqib chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Qo'zg'olonchilarning ijtimoiy tarkibi ham, talablari ham turlicha edi. Qo'zg'olonda aholining deyarli hamma tabaqalari qatnashadi[3.200].

Arab istilochilari istibdodiga qarshi Movarounnahrda eng katta qo'zg'olon 769-yilda boshlandi. Bu tarixda «Oq kiyimlilar» (chunki qo'zg'olonchilarning asosiy jangovar guruhi oq rangdagi kiyim kiygan edilar) yoki qo'zg'olon rahbarining nomi bilan Muqanna qo'zg'oloni deb yuritiladi. Bu qo'zg'olon deyarli butun O'rta Osiyo hududlariga tarqaldi. Muqanna ism emas, balki laqabdir. Bu so'z «niqobdor», «pardali» ma'nolarini anglatadi. Muqannaning asli ismi Hoshim ibn Hakim bo'lib, uning ismi va shaxsi to'g'risida yozma manbalarda turlicha ma'lumotlar mavjud. Jumladan. Yaqubiy uni Hakim al-A'var (bir ko'zli) Hoshim deb atagan.

Ibn Xallikan esa Muqannaning ismi Ota bo'lgan, deydi. Muqannani yomon ko'rgan feodal zamoni tarixchisi Narshaxiy yozadi. «Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyishlariga sabab shu ediki, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'r bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurardi. Muqannaning ish faoliyati to'g'risida ham har xil rivoyatlar bor. Ba'zi birovlar uni qul bo'lgan desalar, boshqa birovlar u kir yuvish bilan shug'ullangan deb rivoyat qiladilar. Manbalarda Muqannaning yoshlik chog'larida kundugarlik (ya'ni matolarga oxor beruvchi) bilan shug'ullanganligi ham qayd qilinadi. Narshaxiy Muqannani yomon ko'rganligini sir saqlamagani holda uni aqlli va o'qimishli bo'lganligini tan oladi. Darhaqiqat, u savodli va nihoyatda bilimdon bo'lgan[4.157].

Muqanna Abu Muslim (750-755) qo'shinida kichik lash-karboshi edi va Abduljabbor Azdiy davrida (757-759) esa Jazirlik darajasigacha ko'tarilgan. U Mazdak g'oyalarining ilhomehist sifatida faoliyat ko'rsatgan, itimory tenglik va erkin hayot da'vatinitarg'ib etgan. Muqanna o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. U ilgari xudo Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad va Abu Muslimlarda qanday gavdalangan bo'lsa, menda ham xuddi shunday gavdalanadi, deb odamlarni o'z orqasidan ergashishga da'vat etadi. Shu bois uni xalifa Mansur qamoqqa olib, yangi qurilgan Bag'dod zindoniga tashlaydi. Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda Mu-qanna ancha vaqt zindonda yotib, so'ng qochib Marvga keladi va 776-yilda xalifaga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga rahbarlik qiladi. Bu haqda Beruniy aniq ma'lumot beradi. «Undan keyin Marvda, Kavaqimardon degan qishloqda Al-Muqanna laqabi bilan tanilgan Hoshim ibn Hakim paydo bo'ldi. Uning bir ko'zi ko'r bo'lganligidan yuzini yashil ipak mato bilan bog'lab olardi. U Jayhun (Amudaryo) daryosidan o'tadi. Kesh va Nasafgacha yetib boradi, unga «oq kiyimlilar» va turklar qo'shiladi. Muqanna ularga (begona) mol-mulk va ayollarni olishga hamda o'zlariga qarshi turgan kishilarni o'ldirishga yo'l qo'yib beradi[4.158].

Muqanna Marvdan turib O'rta Osiyoning turli viloyat va shaharlariga o'zining ishonchli odamlarini jo'natadi. Ular joylarda Muqanna g'oyalarini targ'ib qiladilar. Muqannaga ixlosmand va tarafdor kuchlar, ayniqsa, Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridako'pchilikni tashkil etardi. Narshaxiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda Naxshab va Kesh atrofidagi aholini Muqanna g'oyalari orqasidan ergashtirishda asli arab Abdulla ibn Amirning xizmatlari katta bo'lgan. Muqanna Abdullaning qiziga uylangan edi. Shu bois u o'z qaynotasiga ishonganligidan Abdullani Qashqadaryo vohasiga ishonchli vakil sifatida jo'natgandi[4.158].

Muqanna sug'dda "oq kiyimlilar" harakatining keng quloch yoyib rivojlanganligiga ishongach, qo'zg'olonga bevosita rahbarlik qilish maqsadini ko'zlab o'zining 36 muhlisi bilan Jayhun daryosining o'ng qirg'og'iga o'tib, Naxshab va u yerdan Kesh shahriga yetib boradi. Kesh shahri yaqnidagi tog' tepasida bino qilingan Som qal'asini o'zining mustahkam qarorgohiga aylantiradi. Tez orada butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar tomoniga o'tadi. «Oq kiyimlilar harakati Zarafshon vohasiga ham yoyiladi. Samarqand bilan Buxoro ham aslida qo'zg'olonning markazlaridan biriga aylanadi. Hatto Buxorxudot Bunyod ibn Tog'shoda islom dinidan qaytib, Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olonchi vatanparvarlar tomoniga o'tadi. Tez orada lloq (Ohangaron) vodiysi, Shosh. Farg'ona ham qo'zg'olonchilarni yo'qlab chiqdi[4.159].

Turk xoqoni ham o'z og'asi Kil boshchiligida Muqanna qo'zg'oloniga xayrixoh bo'lib qo'shin yuboradi. Xullas, «oq kiyimlilar» qo'zg'olonining dovrug'i Xurosongacha borib yetadi va abbosiy hukmdorlarni vahimaga soladi. Muqanna qo'zg'olonining harakatlantiruvchi kuchlari Mova-rounnahrning turli feodal tabaqalaridan iborat bo'lgan. Shu boisdan ham ular bu qo'zg'olonda qatnashib o'z oldilariga turlicha maqsad-o'z og'asi Kil boshchiligida Muqanna qo'zg'oloniga xayrixoh bo'lib qo'shin yuboradi. Xullas, «oq kiyimlilar» qo'zg'olonining dovrug'i Xurosongacha borib yetadi va abbosiy hukmdorlarni vahimaga soladi.

Muqanna qo'zg'olonining harakatlantiruvchi kuchlari Mova-rounnahrning turli feodal tabaqalaridan iborat bo'lgan. Shu boisdan ham ular bu qo'zg'olonda qatnashib o'z oldilariga turlicha maqsad-muddaoni qo'yganlar. Ammo bu kuchlarning hammasiga xos bo'lgan g'oya, maqsad birligi bo'lgan, u ham bo'lsa, bosqinchi arablarni ona Vatan tuprog'idan haydab chiqarish, erk va ozodlik uchun kurash g'oyasidir. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, ana shu ulug'vor vatanparvarlik g'oyasini Movarounnahrda barcha aholi tabaqalari o'z vaqtida tushunib yetdilar va uni qo'llab-quvvatladilar, deb ayta olmaymiz. Muqanna harakatiga

dushmanlik ko'zi bilan qaragan va bosqinchi arablarga yordam bergan kuchlar ham bor edi. Masalan, Naqshob atroflarida arablar tomonida turib qo'zg'olonchilarga qarshi jang qilgan mahalliy boy feodal Ahmad Mudi ana shundaylardan biridir. Bunday kuchlar, xususan, mulkdor tabaqalar va oqsuyak zodagonlar safida ko'proq edilar va ular xalq erki va ozodligi manfaatlariga nisbatan o'z shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yadilar.

“Oq kiyimlila” qo'zg'olonidan dahshatga tushgan xalifa Abu Ja'far 775-yilda Muqanna qo'zg'olonini bostirish uchun Jabroil va Uqaba boshchiligida o'n ming qo'shin yuboradi. Lekin Samarqand ostonalarida arablar yengilib, katta talofat ko'radilar. Qo'zg'olonchilar hujumni janubga tomon davom ettiradilar va Termiz yaqinida qo'shimcha yordamga kelayotgan arab qo'shinlariga kutilmaganda hujum qilib, uni tor-mor keltiradilar. Natijada Naqshob va Chag'oniyon vodiylari batamom qo'zg'olonchilar tomoniga o'tadi[4.161].

“Oq kiyimlilar” qo'zg'olonining markazlaridan biri Buxoro va uning atrof hududlari bo'lganligini yuqorida ta'kidlagan edik. Muqanna tarafdorlari bu yerda ham juda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Biroq qo'zg'olonchilar Buxoroni qo'lga kiritmaydilar. «Oq kiyimlilar Buxoroga yaqin bo'lgan Norshoh qishlog'ini o'zlarining mustahkam qo'rg'onlariga aylantirgan edilar. Bu qishloq hokimi (ayol kishi edi) ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tgan edi. Albatta, bu Buxoro uchun katta xavf ekanligini arablar yaxshi bilar edilar. Shuning uchun 776-yil aprelida Samarqand noibi arab qo'mondoni (u 775-yilda Samarqandga noiblikka tayinlangan edi) Jabroil va Bu xoro amin Husayn ibn Maozning birlashgan kuchlari «oq kiyimlilar qo'rg'om Norshonga hurum boshlaydilar. Qo'zg'olonchilar kuchlarga buxorolik Hakim ibn Ahmad. Koshkifazi degan joydan Xishriy va Bogey Graduvendan Gidak ismi pahlavonlar boshchilik qildilar. Kuchlar teng emas edi. Qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchrab alardan 700 kasa oldindadi. Gerze olenchilar uchun bu mag'lubiyat eng katla volguish edi toki o'rtada suh sharaneması tuzilish shartnomaga binoan qo'zg'olon qatnashchilari Xato yo'ldan voz kechib, islem, yo'liga qaytishlari, o'z qishloqlariga targab ketishlari. qonuniy amirlarga barysuffishlari, musulmonlarni talamasliklari va Marga har xil zotravonliklar qilmasliklari kerak edi. G'oliblar esa qo'zg'olonchilardan o'ch olmasliklari lozim edi[5.159]. Ammo musulmon askarlari hali Buxoroga yetib kelishga ulgurmasdanoq Muqanna tarafdorlari yana qo'zprolon ko'taradilar. Jabrol ibn Yahyo boshchiligidagi arablar vana oranga katta kuch bilan davtadilar vaedi.

G'oliblar esa qo'zg'olonchilardan o'ch olmasliklari lozim edi. Ammo musulmon askarlari hali Buxoroga yetib kelishga ulgurmasdanoq Muqanna tarafdorlari yana qo'zg'olon ko'taradilar. Jabroil ibn Yahyo boshchiligidagi arablar yana orqaga katta kuch bilan qaytadilar va to'rt oy davomida Norshoh qal'asini qamal qiladilar. Son jihatdan ustun bo'lgan arab qo'shinlari Norshoh qo'rg'onining devori tagidan uzunasiga 50 gazli chuqur qazib, uni qulatgach qishloqqa bostirib kiradilar. Qattiq qirg'in bo'lib, qo'zg'olonchilar yengiladilar. Norshoh qishlog'i egallanadi. Qo'zg'olon rahbarlari Hakim ibn Ahmad, Bog'iy va Xishriylar o'ldiriladi. Faqat Girdak qutulib qoladi va qayg'uli xabarni yetkazish uchun Muqanna huzuriga jo'nab ketadi. Arablar Narshah qishlog'ida isyonchilarni qonga botirgach, o'zlarining butun diqqat-e'tiborlarini qo'zg'olonning markazi bo'lgan Samarqand va Keshga qaratadilar.

Chunki hali butun Movarounnahr Muqanna qo'li ostida edi. Buning ustiga 777-yilda turk sarkardasi avogi Go'zi ham o'zining katta lashkari bilan Muqanna kuchlariga kelib qo'shilgandi. Qashqadaryo vohasidagi «oq kiyimlilar» kuchlariga Muqannaning o'zi bosh bo'ldi. Samarqand va Zarafshon atrofidagi kuchlarga esa Muqanna tomonidan tayinlangan sug'dlik Sug'diyon ismli kishi rahbarlik qildi. O'lkadagi vaziyat arablar uchun g'oyatda og'ir va tashvishli edi. Buni to'g'ri

hisobga olgan Xalifa Mahdiy qo'shimcha harbiy kuch to'plash maqsadida Nishopurga keladi. Kurashning bu bosqichida Buxorodagi oqsuyak feodal zodagonlar ham batamom arablar tomoniga o'tadilar va arab lashkarboshisi Maoz ibn Muslim boshchiligida katta qo'shin to'planadi.

Narshaxiyning mubolag'a bilan bergan ma'lumotlariga qaraganda, Muqqanaga qarshi to'plangan arablarning birlashgan kuchlari 570 ming kishidan iborat bo'lgan. Lekin shunday katta kuch bilan ham Jabroil ibn Yahyo va Maoz ibn Muslim boshchiligidagi istilochilar, qo'zg'olonchilar ustidan sezilarli yutuqqa erisha olmaganlar. Faqat 777-778-yillar davomidagi urush harakatlari chog'ida buxorolik bir kishi tomonidan iste'dodli sarkarda Sug'diynonning o'ldirilishi «oq kiyimlilar» uchun juda katta yo'qotish bo'lgan. Shundan so'nggina arablar Samarqandni ishg'ol qilganlar[4.162].

Muqanna qo'zg'oloniga qarshi kurashning haddan tashqari cho'zilib ketganligi xalifa Mahdiyni juda tashvishga solayotgan edi. U qanday qilib bo'lmasin qo'zg'olonni tezroq bostirish uchun zarur choralar ko'radi. Shu maqsadda u arab lashkarlarining qo'mondonlik tarkibini keskin yangilaydi. Maoz ibn Muslim ham o'zining chaqirib olinishini iltimos qiladi. Arab qo'shinlariga o'zining johilligi va shafqatsizligi bilan nom chiqargan Sayd Xarashiy Bosh qo'mondon etib tayinlanadi[4.162]

Xulosa qilib aytganda, Arab bosqini Markaziy Osiyo davrida Movarounnahr hududida yuzaga kelgan ozodlik harakatlari mahalliy aholi tomonidan mustamlakachilik siyosatiga qarshi tabiiy javob bo'ldi. Arablar tomonidan joriy etilgan og'ir soliqlar, siyosiy bosim va diniy o'zgarishlar aholi noroziligini kuchaytirib, turli qo'zg'olonlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi[5.118].

Mazkur harakatlar, jumladan Divashtich va Xoris ibn Surayj boshchiligidagi chiqishlar o'z davrida keng xalq qatlamlarini qamrab oldi. Garchi bu qo'zg'olonlar ko'p hollarda muvaffaqiyatga erishmagan bo'lsa-da, ular mahalliy aholining ozodlikka intilishi, ijtimoiy adolat va mustaqillik uchun kurash ruhini namoyon etdi.

Shu bilan birga, ushbu harakatlar keyingi davr tarixiy jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, mintaqada siyosiy va madaniy o'zgarishlarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Demak, arab bosqini davridagi ozodlik harakatlari nafaqat o'sha davrning muhim voqeasi, balki Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shamsutdinov.R, Mo'minov. X. O'zbekiston Tarixi. –Toshkent: Akademnashr, 2019
2. Alimof.Sh, Arifdjanov.E. O'zbekiston tarixi. –Toshkent, 2014
3. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи I-жилд. Тошкент, 2013
4. Shamsutddinov.R Karimov. Sh. Vatan Tarixi: -Toshkent: Sharq, 2010.
5. Shamsutddinov.R. O'zbekiston tarixi. –Toshkent, 2026.